UDK: 81’373.21

ZOOTOPONIMLARNING EKOLOGIK FUNKSIYALARI

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЗООТОПОНИМОВ

ECOLOGICAL FUNCTIONS OF ZOOTOPONYMS

Madraximov Ablazbek Erkinjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
https://orcid.org/0009-0002-7245-1284

Мадрахимов Аблазбек Эркинжон угли
Старший преподаватель кафедры географии Ферганского государственного университета, PhD
https://orcid.org/0009-0002-7245-1284

Madrakhimov Ablazbek Erkinjon ugli
Senior Lecturer at the Department of Geography, Fergana State University, PhD
https://orcid.org/0009-0002-7245-1284

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston toponimiyasi tarkibidagi zootoponimlarning shakllanishi, ularning turlari va geografik tarqalish xususiyatlari ekologik-geografik yondashuv asosida o‘rganilgan. Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz hududidan jami 380 ta zootoponim aniqlanib, ularning tarqalish arealari ArcGIS Pro dasturi va web-xaritalar yordamida tahlil qilingan. Shuningdek, hayvonot olami vakillari nomlarining kelib chiqishi va ularning inson xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье формирование зоотопонимов в топонимии Узбекистана, их виды и особенности географического распространения изучены на основе эколого-географического подхода. В ходе исследования на территории нашей страны было выявлено в общей сложности 380 зоотопонимов, а ареалы их распространения были проанализированы с помощью программы ArcGIS Pro и веб-карт. Также научно обосновано происхождение названий представителей животного мира и их связь с хозяйственной деятельностью человека.

Annotation: In this article, the formation of zootoponyms within the toponymy of Uzbekistan, their types, and geographical distribution features are studied based on an ecological-geographical approach. During the research, a total of 380 zootoponyms were identified in our country, and their distribution areas were analyzed using ArcGIS Pro software and web maps. Furthermore, the origin

of the names of representatives of the animal kingdom and their connection to human economic activity have been scientifically substantiated.

Kalit so‘zlar: zootoponimlar, toponimiya, fauna, ekologik-geografik tadqiqot, ArcGIS Online, web xaritalar, geografik nomlarni tarqalish areali.

Ключевые слова: зоотопонимы, топонимия, фауна, эколого-географические исследования, ArcGIS Online, веб-карты, ареал распространения географических названий.

Keywords: zootoponyms, toponymy, fauna, ecological and geographical research, ArcGIS Online, web maps, distribution area of geographical names.

KIRISH. Geografik nomning kelib chiqishi hayvonot dunyosi bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday joy nomlari – zootoponimlar hisoblanadi. Zootoponimlar umumiy joy nomlari tarkibida uncha ko‘p emas, biroq ularning yuzaga kelish sabablari xilma – xildir. Zootoponimlar orqali ma’lum turdagi hayvonot olami vakillarini tarqalish areallarini aniqlash imkoniyati mavjud. Garchi zootoponimlar son jihatdan fitotoponimlardan kam bo‘lsa-da, ular dunyoning turli mamlakatlari toponimiyasida uchraydi.

O‘zbekiston toponimiyasi tarkibida hayvonot olami vakillari bilan bog‘liq joy nomlarining salmog‘i 1-2 foizdan oshmaydi [9]. Bugungi kunda O‘zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi (sutemizuvchilar – 107, qushlar – 467, sudralib yuruvchilar – 61, amfibiyalar – 3 va baliqlar – 76) mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiq. So‘ngi yillarda tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, mamlakatimizdagi ko‘plab hayvon turlari kuchli antropogen bosim ostida qolib, ularning yashash manzili va soni qisqardi, ba’zilar esa butunlay yo‘q bo‘lib ketdi. Masalan, Turon yo‘lbarsi, gepard, Orol sulaymon balig‘i kabi hayvonlar butunlar yo‘q bo‘lib ketdi. Ba’zi hayvon qoplon, sirtlon, Ustyurt va Buxoro qo‘ylari, morxo‘r, qoraquloq, O‘rta Osiyo qunduzi, oqbovur kabi xayvonlar yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida turibdi. Ulardan qoplon, Buxoro bug‘usi, Menzbir sug‘uri, Ilvirs xalqaro “Qizil kitobga” kiritilgan [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda mazkur yangi yo‘nalishni o‘rganishni boshlab bergan olimlardan bir S.Qorayev hisoblanadi. Garchi olim “ekologik toponim” iborasini ishlatmagan bo‘lsada, mamlakatimiz hududida yashagan Bulon (Bulon, Bulonti toponimlaridan), Qulon, (Qulonsoy, Qulonboshi, Qulontepa toponimlaridan) Yo‘lbars (Palangdara toponimidan), Sirtlon (Do‘lta, Do‘ltali toponimlaridan), kabi hayvonlarni yo‘q bo‘lib ketganligi, lekin mazkur nomlar saqlanib qolganligini aytib o‘tgan edi [8].

Xorijlik olimlardan geografik nomlarning ekologik jihatlarini arab geografi Abullah Nasser toponimik ma’lumotlar asnosida Saudiya Arabistonidagi antropogen ta’sir va tabiiy muhitning yomonlashuvi natijasida tabiatda yo‘q bo‘lib ketgan yirik qushlardan Arab tuyaqushini (Struthio camelus syriacus) aniqlagan. Lekin ushbu hayvon turi bilan bog‘liq joy nomlari mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek muallifning ta’kidlashicha yirik sut emizuvchi hayvon Osiyo

she’rlari (Felis leo) ham ov qilinishi natijasida yo‘q bo‘lib ketganligini va ularning yashash arealini toponimik ma’lumotlar orqali aniqlagan [2].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zootoponimlar tarkibida ayg‘ir, baliq, bahrin, bedana, biya, burga, burgut, buvra, bug‘ra, bo‘ri, do‘lta (“sirtlon”), ilon-jilon, karp, laylak, malax (tojikcha, tumanday yopirilib keladigan chigirtka galalari), ot, tuya, chag‘a, chigirtka, chovli, shag‘ol, echki, eshak, qarsak, qarchig‘ay, qarg‘a, qulon, g‘ajir (g‘ajimoq-fe’lidan o‘limtikxo‘r beso‘naqay qush, tasqara ham deyiladi) kabi nomlar uchraydi [1]. Hayvonot olami vakillari nomi bilan atalgan joy nomlarini ekologik – geografik tadqiqotlar mazmunidan kelib chiqib 4 ta kichik guruhga bo‘lib o‘rganildi.

Dastlab guruhga hozirgi kunda mamlakatimiz hududida tarqalgan yovvoyi hayvonlar nomi bilan atalgan geografik obyektlarning nomlari olindi. Bu turdagi joy nomalari 9 hayvon turi ishtirokida o‘rganildi va jami 40 ta joy nomlarining ro‘yhati shakllantirildi. Ulardan bo‘ri nomi bilan atalgan joy nomlari Farg‘ona, Janubiy toporayonlarda qolgan hududlarga nisbatan ko‘p ekanligi aniqlandi. Masalan, Bo‘riboshi (Marhamat t.), Bo‘ritepa (Norin t.), Bo‘riqum (Dang‘ara t.), Bo‘rixona (Koson t.), Boybo‘ri (Qamashi t.), Bo‘rikamar (Dehqonobod t.) kabi nomlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari Alqor (Buvayda t.), Tulkiobod (Baliqchi t.), Qoratulki (Ohangaron t.), Qulon, Shag‘al (Amudaryo t.) kabi nomlar hozirda muhofazaga muhtoj hayvonot olami vakillari nomidan olingan.

Ikkinchi guruhga uy hayvoni nomi bilan atalgan 70 ta geografik obyektlar nomlari 4 ta hayvon turi misolida o‘rganildi. Qadim zamonlardan buyon insonlar tomonidan yovvoyi hayvonlar xonakilashtirishgan va ularni xo‘jalik maqsadlarda foydalanishgan. Aynan hayvonlarning inson xo‘jaligidagi (maslan, chorvachilik) faoliyati sababli ma’lum turdagi hayvon nomlari joy nomlariga berilgan. H.Hasanov ta’kidlaganidek, “chorvador rayonlarda har joyning nomiga qarab uning xo‘jalik ahamiyatini bilsa bo‘ladi” [4].

Mamlakatimizda hududida tarkib topgan uy hayvonlari nomida “ot” nomi bilan bog‘liq toponimlar faol ishtirok etgan. Ot va uning turlari nomi asosida shakllangan zootoponimlarning bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazkur hayvon turi bilan bog‘liq bo‘lib, odatda uning harakat xususiyatlari, tashqi qiyofasi, foydalanish maqsadi yoki inson xo‘jalik faoliyatidagi ahamiyatini aks ettiradi. Boshqa bir qismi esa relyefning muayyan shakl va xususiyatlarini ifodalovchi ko‘chma yoki majoziy ma’noda ishlatiladigan so‘zlar asosida yuzaga kelgan. Ba’zan hayvon nomi boshqa, ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin [4]. E.M.Murzayevning fikricha, butun turkiy xalqlar zootoponimlarni cho‘qqilar, balandliklar va dovonlarning relyef xususiyatlarini anglatuvchi nomlari sifatida qo‘llashadi [6]. Masalan, Janubiy toporayondagi (Dehqonobod t., Qamashi t., Chiroqchi t.) Ayg‘irtepa joy nomi “katta tepalik” tushunilishi, yoki hayvon nomi to‘g‘risida ma’lumotni saqlashini anglatadiki, bu turdagi joy nomlarini oronim yoki zootoponim ekanligi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishni talab qiladi [6]. Shuningdek T.Nafasovning izohlashicha, “ayg‘ir” 3-4 yoshli yirik ot, shuningdek, tog‘ yonbag‘ridagi balandlik, tekislikdagi yolg‘iz do‘nglik ma’nolarida qo‘llaniladigan so‘zdir [7]. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki ushbu joy nomini oronim yoki zootoponim sifatida talqin qilish mumkin.

Shuningdek uy hayvonlari nomi tarkibida tuya bilan bog‘liq joy nomlari ham faol ishtirok etgan bo‘lib, deyarli barcha toponimik rayonlarda ushbu hayvon turidagi nomlar mavjud bo‘lgan holda, Janubiy toponimik rayonda ulushi (soni) yuqori hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

Mamlakatimizda tuya nomi bilan atalgan geografik obyektlar

№	Joylashgan toponimik rayoni	Geografik obyekt nomi va turi
1	Farg‘ona toponimik rayoni	Tuyachi k. (Asaka t.), Tuyachi mah. (Izboskan t.), Tuyagum mah (Marg‘ilon sh.), Tuyalas mah. (Jalaquduq t.)
2	Toshkent toponimik rayoni	Tuyabo‘g‘iz sh-cha. (O‘rta Chirchiq t.), Tuyabo‘g‘iz mah. (Bo‘ka, Piskent, Yangiyo‘l t.), Tuyachi mah. (Bekobod t), Tuyatosh soy (Bo‘stonliq t), Tuyabo‘g‘iz kanal (Oqqo‘rg‘on t.), Tuyaqorin urochishe (Bo‘stonliq t.)
3	Mirzacho‘l toponimik rayoni	Tuyatortar k. (Baxmal, G‘allaorol, Sharof Rashidov t.), Tuyayotoq k. (Forish t.),
4	Samarqand toponimik rayoni	Tuyabovur mah. (Ishtixon t.), Tuyabo‘yin k. (Pastdarg‘om t.), Tuyatortar k. (Ishtixon t.), Tuyatosh k. (Payariq t.)
5	Buxoro-Navoiy toponimik rayoni	Tuyachiyo‘l k. (G‘ijduvon t.), Tuyabo‘zlov qabriston (Navbahor t.)
6	Janubiy toponimik rayoni	Tuyabo‘yin qish. (Qarshi t.), Tuyaboshi qish. (Kitob t.), Tuyakash k. (Jarqo‘rg‘on t.), Tuyamo‘yin (Chiroqchi t.), Tuyaqishloq k. (Boysun t.), Tuyatortar k. (Chiroqchi t), Tuyatoshtepa k. (Chiroqchi t.), Tuyatoshota qabriston. (Yakkabog‘ t.), Tuyayaylov urochishe (Boysun t.)
7	Quyi Amudaryo toponimik rayoni	Tuyamo‘yin mah. (To‘rtko‘l t.), Tuyamo‘yin k. (Hazorasp, Tuproqqal’a, Amudaryo, Ellikqal’a, Nukus, Qorao‘zak, Taxiatosh, To‘rtko‘l t.), Tuyachi k. (Beruniy, To‘rtko‘l t.)

Jadval muallif tomonidan bajarilgan o‘rganishlar asosida tuzilgan.

Tarixdan bizga ma’lumki, tuyalar cho‘l va chala cho‘l zonalarida boqilgan bo‘lib, benazir ulov vazifasini ham bajargan. Shuningdek tuyaning gavda tuzlishi g‘alatiligi bilan kishilarning e’tiborini tortgan. Ba’zan hayvon nomlarining to‘g‘ridan – to‘g‘ri joy nomlariga o‘tish hodisasi kuzatilsa, ba’zan ko‘chma ma’noda keladi. Masalan, Tuyachi so‘zning lug‘aviy ma’nosi sarbon, tuyakash, tuya karvonining boshlig‘i ma’nosida kelsa, Tuyabo‘g‘iz – daryoning tuya bo‘g‘iziga – bo‘yniga o‘xshab oqadigan joyi tuyabo‘g‘iz yoki tuyamo‘yin deb ataladi [1].

Tuyalar (ikki o‘rkachli) asosan Avstraliyada, Afrikaning shimoli, Osiyoning janubi-g‘arbiy, sharqiy, markaziy qismlarida va kam miqdorda Shimoliy Amerika hududlarda yashagan. Bugungi kunda ekologik – geografik tadqiqotlar natijasida yer yuzida tuyalarning yashash areali tabiiy, xo‘jalik va ekologik omillar ta’sirida keskin o‘zgarganligini geografik nomlar taxlilidan ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz hududida uy hayvonlari bilan bog‘liq qo‘y nomi bilan 10 ta geografik obyektlar nomlangan holda, echki nomi bilan esa 5 marta geografik obyektlar nomi Farg‘ona, Buxoro-Navoiy, Quyi Amudaryo toporayonlarida mavjud.

Uchinchi guruh sifatida qushlar nomiga nisbat berib qo‘yilgan geografik obyektlar nomlari nisbatan keng tarqalgan. Respublikamizda aniqlangan 380 ta zootoponimlarning 88 tasi (23 %) jami 8 ta turdagi qushlar nomi asosida tarkib topgan. Qushlar orasida lochin, burgut, qarg‘a, kabutar kabi turlarning zootoponimlarda eng ko‘p ishlatilgan. Turkiy xalqlarda ushbu hayvonning tezkorligi, uzoq masofadan nishonni aniqlash qobiliyati va ov qilishdagi ustamonligi kabi ijobiy fazilatlarini qadrlab, ulug‘lashgan. Lochin nomi bilan atalgan geografik obyektlar Janubiy toporayon joy nomlari tarkibida qolgan toprayonlarga nisbatan soni ko‘p ekanligi uchratish mumkin. Masalan, Lochin (Denov t.), Qoralochin (Dehqonobot t.), Bobolochin (Denov t.) kabi nomlar.

Shuningdek qarg‘a nomi bilan 15 marta geografik obyektlar nomlangan holda, Samarqand va Janubiy toporayonlarda eng ko‘p tarqalgan. Masalan, Ko‘kqarg‘a (Narpay t.), Qarg‘ali (Nurobod t.), Alaqarg‘a (Yakkabog‘ t.), Qarg‘ayoq (Chiroqchi t.) kabi nomlarni uchratish mumkin.


Deyarli barcha toporayonlarda kaputar nomi bilan joy nomlari mavjud bo‘lib, 23 marta geografik obyektlar nomlanishida ko‘rish mumkin. O‘zbek xalqi madaniyatida yaxshilik, sadoqatlilik ramzi sifatida qadrlangan. Shuningdek kaputarlar insonlar o‘rtasida xabar yetkazuvchi vazifasini ham bajargan. Misol uchun Xorazm viloyatining Xiva shahrida Kaptarxona mahallasi mavjud bo‘liq, xat tashuvchi kaputarlar uchiradigan minoralarning bir qismi hozirgacha mahalla hududida saqlanib qolgan [5].

Mamlakatimizda burgut, chumchuq nomi bilan 6 marta, shunqor nomi bilan 4 marta, Oqqoush nomi bilan 9 marta va Qoraqush kabi yirtiq hayvon nomi bilan 6 marta geografik obyektlar nomlanganligi qayd etilgan.

Suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar mamlakatimiz hayvonot olami vakillarining to‘rtinchi guruhini tashkil qiladi. Umumiy nom bilan baliq turini aks

etuvchi nomlar toporayonlar tarkibida 32 marta joy nomlanishida ishtirok etadi. Masalan, Baliqchi (Ulug‘nor t., Buvayda t., Chust t., Quyi Chirchiq t., Yuqori Chirchiq t., Zangiota t., Payariq t., Yangiariq t.) toponimi toporayonlar tarkibida eng ko‘p takrorlangan. Shuningdek qunduz nomi ham joy nomlarini hosil qilishda faol ishtirok etgan. Masalan, Qunduz (Shovot t.), Qunduzbuloq (Baxmal t., O‘zbekiston t.), Qunduzso‘fi (Samarqand sh.) kabi nomlar [10].

Tadqiqotlar natijasida, mamlakatimiz hududida hayvonot olami vakillari nomi bilan 380 ta geografik obyektlar nomlangan. Ushbu ma’lumotlar ArcgIS Pro 3.0 yordamida tayyorlanib ArcGIS Online tizimida web xarita ko‘rinishiga keltirildi (1-rasm).



1-rasm. Hayvonot olami vakillari nomi bilan atalgan joy nomlarining web xaritasi

Ushbu web xaritalar orqali zootoponimning toporayondagi xududiy joylashuvi (viloyat, tuman, shahar), qaysi hayvon turini bildirishi, miqdorini va nom shakllangan hudud tabiati bilan bog‘ligini aniqlash mumkin [5].

XULOSA

Xulosa o‘rnida, hayvonlar bilan bog‘liq joy nomlari mamlakatimiz toponimlari tizimida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga zootoponimlar joy tabiati haqida muhim geografik axborotlarni beruvchi manbadir. Bu ma’lumotlar orqali inson va tabiat o‘rtasida munosabatlarni aniqlashga, yo‘qolgan yoki yo‘qolib borayotgan noyob hayvon turlarining o‘tmishda yashagan hududlarni tiklashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmadaliyev Y., P.Otaqulov., Madraximov A. Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o‘rni va ahamiyati // FarDU ilmiy xabarlari jurnali. Maxsus son, 2024 yil. –B.199-205.

2. Abdullah Nasser. The Significance of Place Names in the Distribution of Wildlife and their Benefits in the Reintroduction Process – Saudi Arabia.Geographical Names as Indicators of the Environment №63 june 2022. 24 b.
3. Аҳмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик. Ўқув қўлланма . –Фарғона, «Poligraf Servis», 2018.– 118 б.
4. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Географик номлар сири. – Т.: Ўзбекистон, 1985. – 120 б.
5. Madraximov A.E. “Geografik nomlarning ekologik funksiyasining mintaqaviy xususiyatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida)”. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Samarqand. 2026.- 261 b.
6. Мурзаев Э.М. Топонимика и география /Э.М. Мурзаев. – М. : Наука, 1995. – 304 с.
7. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистонининг жанубий районлари). – Т.: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.
8. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 320 b.
9. Қораев С. Географик номлар маъносини биласизми? – Т.: Ўзбекистон, 1970. – 190 б.
10. Ханмагомедов Х.Л., Махачева С.З., Гебекова А.Н. Экологическая топонимика Северного Кавказа // Тез. Докл. Конф. По итогам геогр. Исследований в Дагестане. Вып. 24. Махачкала: Изд-во геогр. О-ва Дагестана, 1993. С. 97- 98.